

OILAVIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY ASOSLARI

Jumaniyazova Moxira

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Ijtimoiy fanlar va huquq” kafedrası katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarning jamiyat hayoti uchun muhim masala ekanligi hamda uning mustahkam bo‘lishida nimalarga e’tibor qaratishimiz lozimligiga alohida e’tibor qaratilgan. Oila – bu alohida mexanizm va undagi sog‘lom munosabatlar kelajak avlodning aksiologik qiyofasini belgilashda asosiy sababchi omilligi belgilangan. Maqolada tahliliy masalalar keltirilgan hamda xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy mexanizm, aksiologik muammolar, jamiyat strukturasi, an’anaviylik, zamonaviylik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье особое внимание уделяется тому, что семейные отношения являются важным вопросом для жизни общества и на что мы должны обратить внимание для их укрепления. Семья - это особый механизм, и установлено, что здоровые отношения в ней являются основным причинным фактором в определении аксиологического облика будущего поколения. В статье представлены аналитические вопросы и представлены выводы.

Ключевые слова: семейные отношения, социальная среда, социальный механизм, аксиологические проблемы, структура общества, традиционность, современность.

ABSTRACT

In this article, special attention is paid to the fact that family relations are an important issue for the life of society, and we must pay attention to this in order to strengthen them. Family is a special mechanism, and it has been established that healthy relationships in it are the main causal factor in determining the axiological image of the future generation. The article presents analytical questions and conclusions.

Key words: family relations, social environment, social mechanism, axiological problems, structure of society, tradition, modernity.

KIRISH

Ma'lumki, oila bu jamiyatning asosiy bo'g'ini, asosiy vazifasini bajaruvchi mexanizmidir. Davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlar ham aynan oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga bevosita ta'sir o'tkazadi. Agar oilalarda tinchlik, farovonlik, qoniqish kabi axloqiy kategoriyalar ustuvor bo'lmasa, keyinchalik bu holat uning barbod bo'lishiga olib kelish ehtimolini oshiradi. Afsuski, globallashuv hamda zamonaviy individualizmning shartsiz kirib kelishi natijasida o'zbek milliy oilalari o'z shakli va mazmunini tubdan o'zgartirib bormoqda. Bu kabi jarayonlarning ommalashuvi sog'lom muhitni buzishi, oila a'zolarining o'zaro kelishmovchilikka uchrashiga sabab bo'ladi.

Darhaqiqat, inson zotining davomiyligi oilalarning barhayotligi bilandir. Bugun biz bu masalaga atroflicha e'tibor qaratmasak, mavjud masalaga javob olmasak, muhitni o'rganmasak bu asrlar davomida qiymatli qadriyatimizga aylanib bo'lgan oilani yo'qolib borishi bilan nihoyalaydi. Oilaning mustahkamligi jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qadimdan o'zbek xalqida oila qurish, ayniqsa, kelin-kuyov tanlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda bu borada yoshlarning qarashlari qanday? Raqamalarga murojaat qiladigan bo'lsak, "Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini e'lon qilindi, unga ko'ra: so'rovlarda jami 1187 ta 18 yoshdan katta aholi (erkaklar – 560 nafar (47,2 foiz), xotin-qizlar – 627 nafar (52,8 foiz) qatnashdi. So'rovlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon viloyati, Qashqadaryo viloyati, Namangan viloyati, Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida olib borildi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat yoshlar turmush o'rtoq tanlashda shaxsiy xohish va oilaning maslahatini uyg'unlashtirish tarafdori. Respondentlarning 32 foizdan ortig'i ota-onalari va yaqinlarining fikrini inobatga olib, yakuniy qarorni o'zi qabul qilishini aytgan. Bu o'zbek yoshlarining o'ziga xos xususiyati – an'analarga hurmat bilan yondashib, mustaqil fikr yuritishga intilishining yorqin ifodasidir. Shu bilan birga, har to'rtinchi respondent turmush o'rtoq tanlashda hech kimning aralashuvini istamasligini bildirgan. Bu yoshlarning erkinlikka, mustaqillikka intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilash istagi bilan bog'liq, albatta. So'rovda ishtirok etganlarning 26 foizdan ko'prog'i ota-onalar tanlovda muhim rol o'ynashi kerakligini ta'kidlagan. Ammo yakuniy so'zni aytish huquqi baribir yoshlarning o'zida qolishi lozim, deb

hisoblaydi. Respondentlarning 10 foizga yaqini faqat ota-onalar turmush o'rtog'ini tanlashi kerak, chunki ular eng yaxshi tanlovni qilishadi, deb hisoblaydi¹.

Oilalarni mustahkamlashda quyidagi mexanizmni bosqichma-bosqich ishlab chiqish ham tavsiya etiladi:

- Oila quruvchi yosh yigit-qizlarni ma'suliyatlilik va sabr-toqatlilik darajasini turli so'rovnoma, testlar, amaliy-psixologik laboratoriyalarda sinovdan o'tkazish;

- Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda olima, jamiyatda namuna bo'la oladigan faol xotin-qizlarning oilaviy munosabatlarni qo'llab-quvvatlashdagi tashabbusini o'rganish – Masalan: quyi sektorlarda joylarda jonli suhbatlar tashkil etilib, tajribalar bilan tanishish;

- Oila qurish arafasidagi yigitlar bilan yaqindan suhbat o'tkazish, psixologik, fiziologik holatini aniqlash; (Masalan: FHDYO idoralari bilan hamkorlikni oshirish);

- O'rta-maxsus va Oliy ta'lim muassasalarida "Siz oilaga tayyormisiz?", "Sizning bo'lg'usi oilangizda qanday qadriyatlar muhim bo'ladi?", "Nikoh – bu yorqin kelajakmi? Yoki erkinlikdan mahrumlikmi? Kabi mavzularda seminar treninglarni jonli tashkil etish;

Umuman, bugungi zamonaviy oilalarda er-xotin munosabatlarini mehr-muhabbat va o'zaro hurmat kabi rishtalar bilan bog'lash murakkablashib bormoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda turli nomutaxassis, o'zining shaxsiy tajribasiga tayanib oilaviy masalalarda muhim tavsiyalarni berayotgani, turli soxta motivator, professional psixologlikka da'vogar shaxslar munosabatlarni yaxshilashga doir berayotgan takliflari bilan vaziyatni aksincha holatga olib kelishmoqda. Oqibatda esa, oilaning tugashi hamda farzandlar to'liq oilada o'sib ulg'ayishdek baxtdan mosuvo bo'lib qolishmoqda. Ajrimlarning keskin oshishi boshqa ijtimoiy muammolarni vujudga kelishiga ham sabab bo'ladi. Bu kabi salbiy oqibatlarni bartaraf etishda qanday choralar ko'rish lozim. Xalqaro tajribalar bu borada qanday ishlarni amalga oshirishmoqda?

"Germaniyada oila tushunchasi an'anaviy ravishda ota-onalar va ularning farzandlarini tashkil etuvchi nuklear model atrofida birlashadi. Biroq ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarning o'zgarishi bilan birga, hozirgi vaqtda turli xil oila shakllari, jumladan, to'liq bo'lmagan oilalar ham mavjud. Farzandlar o'sib ulg'aygani sari o'zlarining mustaqil bo'lishlariga undalishi, ko'pincha oliy ma'lumot olish yoki ishga joylashish uchun oila uyidan chiqib ketishlari odatiy holdir.

Nuklear oila: ota-ona va ularning farzandlaridan (biologik yoki asrab olingan) iborat oila guruhi.

¹ Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot materiallari doirasidan ijtimoiy so'robnoma natijalari – 16/09/2025 - "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti

Misol: Germaniya nuklear oilasidagi odatiy ssenariy ikkala ota-onaning ham ishlashi, bolalarning maktabga borishi va har tomonlama rivojlanishga yordam berish uchun maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishini o'z ichiga oladi.

Germaniyadagi demografik o'zgarishlar so'nggi bir necha o'n yilliklarda oila tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu o'zgarishlarga aholining qarishi, tug'ilishning kamayishi va immigratsiyaning ko'payishi kiradi. Natijada, oila tuzilmalari yanada xilma-xil bo'lib, ko'p avloddan iborat uy xo'jaliklari, immigratsiya tufayli aralash oilalar va bolasiz oilalar soni ko'paydi. Bu, o'z navbatida, aholining qarishi, shuningdek, oilalarda keksalar g'amxo'rlikiga muhtojlik kabi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, Germaniyada turli madaniyatlarga mansub odamlar oila qurish bilan birga, oilaviy an'analar va amaliyotlarda xilma-xillik ortib bormoqda"².

Hindistonda oila jamiyat hayotining asosini tashkil etadi. 2021-yilda Hindistonda taxminan 302 million uy xo'jaliklari mavjud bo'lib, har bir xo'jalikda o'rtacha 4,44 nafardan a'zodan iborat bo'lgan. Ya'ni bundan xulosa qilib aytish mumkinki, Hindiston dunyodagi eng ko'p oilalar mavjud bo'lgan mamlakat hisoblanadi.

Hindistonda oila va unga taalluqli qadriyatlar tizimi ko'p asrlik madaniy, diniy va ijtimoiy an'analar asosida shakllangan. Hind jamiyatida oila tushunchasi azaldan muqaddas hisoblanib, mustahkam oilaviy rishtalar qadrlangan. An'anaviy ravishda hind oilalari katta, ko'p avlodli, hamjihatlik g'oyalari asosida shakllangan. Bugungi kunda globallashtiruv, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari ta'sirida oilaviy qadriyatlar tizimi o'zgarishlarga ham uchramoqda.

Hindistonda nikohni muqaddas sanab, oilaning barqarorligini saqlash haqidagi qarashlar ming yillar davomida shakllangan. Hind jamiyati uchun nikoh muqaddas ittifoq va oila shakllanishining muhim qismi sifatida qaraladi. Hindistonda nikohlar ikki oilaning ulug'lari tomonidan yigit va qiz tegishli bo'lgan tabaqa, din va ijtimoiy mavqe asosida tuzilishi odatiy hol hisoblanadi. Ularda oilaviy ajrashish qattiq qoralanib, nikoh tuzilishidayoq oilaviy rishtalar butun umrga bog'lanishiga e'tibor qaratilgan³.

Janubiy Koreyada oila jamiyatining ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy barqarorlikning tamal toshi hisoblanadi. Azaldan koreys oilasi patriarxal tuzilishda bo'lgan. Unda ota yoki ernaing roli asosiy bo'lib, oilada ayollar va farzandlar unga itoat etishgan, hurmat ko'rsatishgan. Ota esa, o'z navbatida, buning evaziga oilasiga g'amxo'rlik qilish, ta'minlash va himoya qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga olgan. Konfutsiylik va buddaviylik g'oyalarining ta'sirida oilada farzandlik burchi,

² Germaniyada oilalar – ilmiy maqola. X.I.Toshov. <https://oilaqadriyat.uz/germaniyada-oilalar/>

³ Hindistonda oilalar – ilmiy maqola. S.K.Alimov. <https://oilaqadriyat.uz/hindistonda-oila/>

kattalarga hurmat-ehtirom ko'rsatish kabi qadriyatlarga katta e'tibor qaratila boshlagan. Koreya urushi (1950–1953-yillar)dan keyingi yillarda oila institutida o'zgarishlar sodir bo'la boshladi va bu ayollarning an'anaviy gender rollariga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faolligining oshishi, shuningdek, aholining keksayishi, tuzilayotgan nikohlar va farzand ko'rishning kamayib ketishi kabi jihatlar oilaga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, koreys jamiyatida hali ham oilaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi⁴

Global Farovonlik Tadqiqoti madaniyatlar o'rtasida insoniyatning farovonligini o'rganuvchi keng ko'lamli, uzoq muddatli ilmiy loyiha bo'lib, ushbu loyihaga Garvard universiteti huzuridagi Inson farovonligi dasturi va Baylor universitetining Dinni o'rganish instituti olimlari, Gallup va Ochiq fanlar markazi bilan hamkorlikda rahbarlik qiladi. Tadqiqot barcha aholi yashaydigan qit'alarni qamrab olgan bo'lib, madaniy va geografik jihatdan xilma-xil 22 mamlakatdan 200 mingdan ortiq ishtirokchi orasida tadqiqotlar o'tkazildi. Panel tadqiqot sifatida ishlab chiqilgan ushbu loyiha, 2022-yildan 2027-yilgacha bo'lgan besh yillik davr mobaynida bir xil insonlarni kuzatib boradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi, uzoq muddatli tadqiqotlarni amalga oshirish bilan odamlarni kuzatib borish orqali o'zgarishlar va ehtimoliy sabab-oqibat munosabatlarini baholash, madaniyatlararo aholini qamrab olish, farovonlikni o'rganishdagi mavjud katta bo'shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ko'p qirrali farovonlik ma'lumotlarini yig'ib, quyidagi 5 ta indikatorlarni baholaydi:

- *Baxt va hayotdan mamnunlik;*
- *Jismoniy va ruhiy sog'lik;*
- *Hayotning ma'nosi va maqsadi;*
- *Xarakter va axloqli fazilatlar;*
- *Ijtimoiy munosabatlar;*

Tadqiqotlarga ko'ra, boylik bilan farovonlik o'rtasida teskari aloqadorlik aniqlandi. Masalan, Indoneziya, Filippin, Meksika va Polsha kabi nisbatan pastroq jon boshiga YaIM ko'rsatkichiga ega davlatlar farovonlik bo'yicha yuqori o'rinlarni egallagan. Bunga ularning kuchli ijtimoiy xulq-atvori, hayot mazmuni va yaqin munosabatlari sabab bo'lgan. Aksincha, AQSh va Buyuk Britaniya kabi ko'plab boy davlatlar ortda qolgan, bunga esa ko'pincha zaif ijtimoiy aloqalar va hayot ma'nosining sustligi sabab qilib ko'rsatilgan. Shuningdek, yosh va farovonlik o'rtasidagi munosabat global miqyosda o'zgarmoqda, ya'ni 18-30 yoshlilar nisbatan ko'proq qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatmoqda. Mazkur tendensiya yoshlar orasida yolg'izlikning kuchayishi, ruhiy salomatlik muammolarining ortishi

⁴ Janubiy Koreyada oilalar - ilmiy maqola. S.K.Alimov. <https://oilaqadriyat.uz/janubiy-koreyada-oilalar/>

va jamiyat hayotida ishtirok etishning kamayishi bilan bog'liq. Retrospektiv ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davridagi qiyinchiliklar masalan, qashshoqlik, zo'ravonlik voyaga yetganda farovonlik darajasining ancha past bo'lishi bilan chambarchas bog'liq ekan. Global farovonlik tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, insonlarning farovonlik darajasi juda xilma-xil bo'lib, bu nafaqat mamlakatlar o'rtasida, balki har bir mamlakat ichida ham yosh, jins, ta'lim darajasi, oilaviy ahvol va boshqa omillarga ko'ra farqlanadi. Masalan, Yaponiyada ayollar erkaklarga qaraganda o'zlarini yaxshiroq his qilishlarini bildirgan bo'lsa, Braziliyada buning aksi kuzatilgan. Ba'zi tendensiyalar universal bo'lib ko'rinsa-da, boshqalari madaniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekistonda bu boradagi jarayon qanday kechmoqda, buni tadqiqot doirasida o'rganish qanday natijalarni ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi kabi o'rganishlar 2023-yilning may-dekabr oylari davomida Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Oilalarning baxtlilik darajasi" mavzusida mamlakatning barcha 14 hududiy birliklarida 3054 nafar respondentlardan o'tkazilgan so'rov natijalari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili asosida oilalarning umumiy baxtlilik darajasi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich **8 ta indikator** va **21 ta subindikatorlardan** tashkil topgan umumiy indeks vositasida baholandi. Oilalarning baxtlilik indeksi oilalar iqtisodiy farovonligi; demografik barqarorligi; sog'lom hayot kechirish davomiyligi; ta'lim olish imkoniyatlari; ish bilan ta'minlanganligi; oilaviy hayotdan qoniqishi va oilaviy baxtlilikni his qilishi; oilaviy qadriyatlarining o'rni hamda ahamiyati; oilalarning davlat organlari faoliyati va xizmatlaridan qoniqish darajasini qamrab oldi. Tadqiqotga 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan respondentlar jalb etilib, ularning aksariyatini 25-40 yosh oralig'idagi juftliklardan iborat oilalar tashkil etdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari indeks ko'rsatkichining minus 1 dan plus 1 oralig'ida o'lchandi. Hududlar orasida **Xorazm, Sirdaryo, Namangan** viloyatlari va **Qoraqalpog'iston Respublikasida** oilalarning baxtlilik indeksi ko'rsatkichi **eng yuqori natijalarni** ko'rsatdi. **Toshkent shahri, Jizzax** va **Farg'ona** viloyatlari esa mazkur reytingning so'nggi o'rinlaridan joy olib, ularda o'rta darajadagi ijobiy ko'rsatkichlar qayd etildi. O'zbekiston bo'yicha oilalarning umumiy baxtlilik indeksi plus 0,56 koeffitsiyentni tashkil etib, jamiyatda ko'p jihatdan ijobiy kayfiyat ustuvorlik qilayotganidan dalolat bermoqda.

XULOSA

Tahlillar natijasida O'zbekiston oilalarining aksariyati o'zini baxtli his qilishi, hayotga ko'tarinki ruh va kelajakka ishonch bilan qarashi, hayotiy maqsadlari hamda rejalari borligi, muammo va qiyinchiliklarni xalqimizga xos bo'lgan shukronalik hissi orqali yengib o'tishi aniqlandi. Oilalarning demografik barqarorlik holati, oilaviy

qadriyatlarining oʻrni va ahamiyatlilik darajasi hamda oilaviy hayotdan qoniqish va oilaviy baxtlilikni his qilish darajasi **(+0,667)** indikatorlari eng yuqori natijalarni koʻrsatdi. Oilalar baxtlilik darajasiga taʼsir koʻrsatuvchi asosiy omillarga birinchi navbatda farzandlarning borligi, oʻzbek xalqining oilaviy qadriyatlarga sodiqligi, oiladagi samimiy munosabatlar va gʻamxoʻrlilik, sogʻlom hayot kechirish imkoniyati hamda iqtisodiy farovonlik holatlari ijobiy baholanganligi qayd etildi. Indikatorlar orasida oilalarning ish bilan taʼminlanganlik darajasi (+0,323) hamda taʼlim olish imkoniyati (+0,114) nisbatan past natijalarni namoyon qildi. Aholi oʻrtasida oliy maʼlumotli boʻlish, oʻz farzandlarini oʻqitish ishtiyoqi yuqoriligi ijobiy holat hisoblanadi. Ayrim holatlarda iqtisodiy, hududiy, malakaga oid omillar taʼsirida farzandlarining taʼlim imkoniyati cheklanganligi, ishga joylashish va oʻziga mos boʻlgan ish topish masalalaridagi muammolar oilalarning kelajakka boʻlgan ishonchi va oʻz hayotidan qoniqish darajasiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan mamlakatda oilalarni va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlarni davom ettirish, jumladan yosh oilalarni uy bilan taʼminlash, taʼlim imtiyozlari, tadbirkorlik faoliyatini yoʻlga qoʻyish, qoʻshimcha daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish yoʻnalishida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat naqadar toʻgʻri ekanligi va uni davom ettirish lozimligini namoyon qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan oʻtkazilgan tadqiqot materiallari doirasidan ijtimoiy soʻrobnoma natijalari – “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
2. Germaniyada oilalar – ilmiy maqola. X.I.Toshov.
<https://oilaqadriyat.uz/germaniyada-oilalar/>
3. Hindistonda oilalar – ilmiy maqola. S.K.Alimov.
<https://oilaqadriyat.uz/hindistonda-oila/>
4. Janubiy Koreyada oilalar - ilmiy maqola. S.K.Alimov.
<https://oilaqadriyat.uz/janubiy-koreyada-oilalar/>